

## **Toshkent tibbiyot akademiyasining murojaatlar bilan ishlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan 2021 yil yanvar- dekabr oylari uchun taxliliy yozma axborot**

Toshkent tibbiyot akademiyasida “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablarini so‘zsiz va o‘z vaqtida bajarish asosiy vazifalaridan biri deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Prezident Xalq qabulxonasi, veb-sayt, elektron pochta, yozma va og‘zaki, ishonch telefoni orqali akademiya jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushayotgan murojaatlarning ijrosi so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlari etarli darajani tashkil etilmoqda. Akademiyaning rasmiy sayti, ijtimoiy tarmoqlar orqali hamda konunchilikda belgilangan boshqa yullar bilan yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi natijalarini tizimli, yoritishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar muntazam ishlab chiqilmoqda.

2021 yil IV choragi davomida tibbiyot ta‘lim tizimida murojaatlar bilan ishlashning xolati to‘g‘risida talabalar (anonim so‘rovnomalar) va ota-onalari, jamoatchilik fikrini o‘rganib borish va ularning natijalari haqida akademiya jamoasini ilmiy kengash va haftalik rektorat yig‘ilishlarida muntazam xabardor qilib borildi. Akademiya jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlar bilan ishlashda ochiqlik va shaffoflikni yanada kengroq ta‘minlash maqsadida shaxsan rektor A.Q.SHadmanov tomonidan nazorat etiladi. TTAda akademiya rektori A.Q.SHadmanov va ma’sullarning murojaatchilarni qabul etish qabul jadvaliga asosan dushanba soat 8 dan 10 gacha shaxsiy qabullarni tashkil qilingan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha ma’sullarning qabullari tasdiqlangan jadval asosida olib borilmoqda. Akademiya rektorati binosida Jismoniy va yuridik shaxslar qabuli me‘yoriy xujjatlar bo‘yicha alohida stend qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlarini taxlil qilish va akademiyaning haftalik (dushanba kuni) rektorat yig‘ilishlarida murojaatlar ijrosini tanqidiy muhokama etib borilishini ta‘minlash jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i SH.R.Aliyev tomonidan muntazam amalga oshirilmoqda, rektorat yig‘ilishkengashlarida hisobotlar berilmoqda va shaxsan rektor tomonidan yig‘ilishlarda muhokama etilmoqda. Toshkent tibbiyot akademiyasining rasmiy veb sayti orqali ([www.tma.uz](http://www.tma.uz)) elektron manzil [info@tma.uz](mailto:info@tma.uz), [tta2005@mail.ru](mailto:tta2005@mail.ru), ishonch telefoni (150-78-25) orqali kelib tushgan murojaatlar tizimli ravishda ma’sullar tomonidan mualliflarga murojaatda keltirilgan har bir vaj yuzasidan to‘liq va asoslantirilgan hamda rahbarlar tomonidan imzolangan javob xatlari berilishini ta‘minlash qonunda ko‘rsatilgan muddatlarda ta‘minlanmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni IV chorakda qilingan ishlar umumlashtirilib, taxlil qilinib, hisobot shakllari asosida o‘rnatilgan tartibda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligiga akademiya bo‘yicha ma’sul F.SH.Tuxtaxodjayeva tomonidan o‘z muddatlarida taqdim etilmoqda.

2021 yil IV choragida fuqarolarning murojaatlari bo'yicha ish yuritishni tizimli ravishda tashkil etildi, pm2.gov.uz dasturi imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yildi. Tizim orqali fuqarolardan 16 ta, veb saytdan 76 ta, yozma 7 ta og'zaki 14 ta. Jami 113 ta murojaat tushdi va ijrolari to'liq bajarildi.

1. TTAning rasmiy(www.tma.uz) veb saytida Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari qabuli ruknida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot muntazam berib borilmoqda.
2. Yaponiya O'zbekiston hamkorligidagi uchrashuvi doirasida rektorning yoshlarga qarata xalqaro tibbiy ta'lim borasidagi taklif va mulohazalari O'zb 24 radiosi orqali berildi.
3. 25 fevral 2021 yil Rossining MADIN kompaniyasi vakillari bilan onlayn muloqoti mohiyati. Yangi O'zb Gazetasi va O'zb 24 radiosida intervyu berildi.
4. 02.03.2021 y "Ta'lim muassasalarida ta'lim tizimining bo'shashib qolganiga kim aybdor" mavzusida pedogog xodimlar va tarbiyachilar bilan yuzma yuz uchrashuv. Ta'lim tarbiya masalasi muhokama etildi. Rektorning mulohazalari intervyu tarzida "Yangi O'zb. ", UZA, O'ZB 24 radiosi sahifalari va eshittirishlari orqali targ'ib etildi.
5. 05.03.2021 y. Litva mamlakati bilan xalqaro ta'lim forumi o'tdi. Rektorning forumga murojaati va takliflari "Yoshlar tv" xabarlari va ijt. Tarmoqlardagi rasmiy saytlarimizda aks etdi.
6. 06.03.2021 y. "Ayolga baxt bering saodat bering" rektorning ayollarga tabrigi va tan tanali tadbirdagi ishtiroki tafsiloti. Yangi O'zb gazetasi, O'zb 24 radiosida berildi.
7. 18.03. 2021 y. Yangicha baholash mezoni talabalar bilan ishlashning yangicha uslub haqida, Yangi O'zb rasmiy kanali sahifasida intervyu tarzida berildi.
8. 20. 03 2021 y. Rektorning NAVRO'Z tabrigi va yotoqxonadagi talabalarning Sumalak sayliga hayrixoxlik bilan bergan intervsi Yangi O'zb gazetasi va O'ZB 24 radiosi orqali taqdim etildi.
9. 28.03.21 y. "Teran tafakkur maxsuli" rektor tashabbusi bilan TTA faxriylari va fidoiy professorlar ilmiy faoliyatini keng jamoatchilikka targ'ib etuvchi loyihaga start berildi. O'zb radiosi orqali loyiha mohiyati aks etirildi.
10. 30.03.2021 y. "Ilm ahloq va odobdan boshlanadi" maqola Yangi O'zb gazetasi , O'za va ko'plab ijtimoiy tarmoqlarda maxsus e'lon qilinib, unda rektorning ijtimoiy tarmoqlarda tarqagan tanqidiy chiqishlarga xolisona munosabati aks ettirildi.
- 11.08. 04. 2021yil O'zbekiston Respublikasining Londondagi elchixonsi ko'magida Glazgo universiteti bilan TTA o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida O'zbekiston 24 radiokanaliga maqola tayyorlandi.
- Islom universiteti va TTA hamkorligida "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan" davra suhbat o'tkazildi. Rektor yoshlar bilan uchrashdi. «ISHONCH» gazetasida maqola tayyorlandi.
- 12.13.04. 2021yil. «Korrupsiya dushman sohta do'st » O'zbekiston 24 radiosida TTA rektorining mazkur muommo yuzasidan qarashlari OAV orqali namoyish etildi.
13. 22.04.2021 yil AVECENNA IZDOSHLARI xalqaro olimpiadasi oldidan yoshlar bilan uchrashdi. Olimpiada jarayonlari borasida OAV orqali intervyu berdi. O'ZB 24 tv xabarlar, Yoshlar TV. Davr info. Dunyo bo'ylab TV. Yangiliklarda keng yoritildi.

14. 06.05.2021yil “Koronavirus infeksiyasi: Miliy va xalqaro tajriba” mavzusidagi konferensiyaga bergan sharhi O‘zb 24 va yoshlar radio kanalida, Yangi O‘z gazetasi internet nashrida e’lon qilindi.

15. 08. 05. 2021yil TTA rektori va professor o‘qituvchilari akademiyaning faxriy o‘qituvchilarini qabul qildi. Tantanali marosimda ular ko‘rsatgan jasorat va ibratli ilm yo‘li alohida e’tirof etildi.

16. 23.05. 2021 yil TTA ga Evropaning Karolinska instituti vakillari tashrif buyurdi. Bu tadbir Oav lari O‘zb 24 radiosi, “Dunyo bo‘ylab“ TV orqali keng yoritildi.

17. 25.05.2021yil bitiruvchilar kuni munosabati bilan A.Q.SHadmonov etakchiligidagi pedogogik jamoa Olmazor tumanidagi maktab bitiruvchilari bilan uchrashib, ularga mustaqil hayot ostonasida oq yo‘l tiladilar. O‘zb 24 radiosi, “Dunyo bo‘ylab “TV orqali keng yoritildi.

18. 01.06. 2021yil bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan kafedra o‘qituvchilari hamrohligida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini borib ko‘rdi. «Hislat mahallasida» bayram tadbiri uyushtirildi. O‘zb 24 radiosida keng yoritildi.

2021 yil 1 iyul Manba: TTA telegramm kanalining rasmiy sahifasidagi ilova.

19. 2021 yil 3 -27 iyulga qadar “Vakcina uning ahamiyati” borasida maxsus xabarlar va olimlarimizning ilmiy izlanishlari muntazam yoritib borildi. Manba: TTA rasmiy kanali, «O‘za o‘z» sahifasi, Yangi O‘zbekiston «internet nashr 2021 yil.

20. 2021 yil sentyabr oyi TTA da “Oliy hamshiralik ishi” yo‘nalishi bitiruvchilarining murojaatiga rasmiy munosabat. Manba. O‘zb 24 tv xabarlar, Yoshlar TV. Davr info. Dunyo bo‘ylab TV. Yangiliklar.

UZA uz. Bu tadbir OAV lari orqali keng yoritildi. Manba. TTA maxsus kanali, «uza uz», «kun uz», O‘zb 24 radiosi, «Dunyo bo‘ylab «TV.

21. 7.11.2021yil TTA da rektor A.Shadmanov ishtirokida Malayziya menejment va fan universiteti prezidenti, professor Moxd Shukri va uning jamoasi bilan uchrashuv o‘tkazildi Telegram, Facebook, UzA, Yangi O‘zbekiston gazetasi rasmiy sayti

22.3.12.2021 yil Profilaktik tibbiyot muammolari xalqaro konferentsiya bo‘lib o‘tdi. Kun.uz Telegram, Facebook, UzA, Yangi O‘zbekiston gazetasi rasmiy sayti

2021 yil IV choragi davomida Jismoniy va yuridik shaxslarning qabuli bo‘yicha choraklik hisobotlar taxlili, akademiya rasmiy veb sayti ([www.tma.uz](http://www.tma.uz)) da Jismoniy va yuridik shaxslarning qabuli rukniga joylashtirildi. Ruknda murojaatlar bo‘yicha ma’lumotlar hisobotlari tizimli ravishda berib borilishi ta’minlanmoqda. TTAda 2021 yil IV choragi davomida murojaatlarni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha hech qanday kamchiliklar va qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘yilmadi.

Rektor



A.K.SHadmanov